

TALABALARING MEDIA SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING  
INNOVATSION JIHATLARI

Tengelbaeva Dinora Muratovna

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tezisda talabalarda media savodxonlikni rivojlantirish masalasi va uni innovatsion yondashuvlar orqali amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Media muhitning keskin o'zgarishi, soxta axborotlar oqimining kuchayishi va raqamli makonning murakkablashuvi sharoitida talabalar media axborotlarga nisbatan tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, faktlarni farqlash va axborotdan oqilona foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Tezisda innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli platformalar, interaktiv mashg'ulotlar orqali media savodxonlikni shakllantirish tajribalari yoritiladi. O'r ganilgan metodikalar asosida talabalarning axborotga bo'lgan munosabatini o'zgartirish, raqamli madaniyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** media savodxonlik, raqamli madaniyat, axborot xavfsizligi, tanqidiy fikrlash, talaba, innovatsion yondashuv, raqamli kompetensiya, axborot tahlili, noto'g'ri axborot, interaktiv texnologiya.


## KIRISH

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida insoniyat hayotining barcha sohalarida raqamlashtirish jarayonlari chuqur ildiz otmoqda. Jumladan, oliv ta'lim tizimi ham bu jarayondan chetda qolmagan. Talabalarning ilmiy izlanishlari, o'quv materiallariga kirish imkoniyati, kundalik axborot oqimida ongli ishtirok etishi uchun ularning media savodxonligini oshirish dolzarb masalaga aylangan. Bugungi raqamli muhitda axborot nafaqat o'qitish vositasi, balki ijtimoiy ong va qadriyatlar shakllanuviga ta'sir etuvchi kuchga aylangan.

Soxta axborotlar, manipulyativ ommaviy xabarlar, sun'iy ijtimoiy fikr shakllantirish kabi xavfli jarayonlar yoshlarda mustahkam media imunitet bo'lishini taqozo etadi. Shunday sharoidta talabalarning media savodxonligi ularning shaxsiy himoyasi, axborotni ongli tanlash va undan samarali foydalanish kompetensiyasiga aylanmoqda. Tezisda aynan shu kompetensiyanı shakllantirishda innovatsion yondashuvlarning tutgan o'rni, o'qituvchilar va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi uzviylik masalasi tahlil qilinadi.

## ASOSIY QISM

Media savodxonlik tushunchasi zamonaviy pedagogika, kommunikatsiya va raqamli madaniyatning kesishgan nuqtasida shakllanadi. UNESCO (2021) ta'rifiga ko'ra, media savodxonlik – bu shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, baholash va tarqatish bo'yicha bilim, ko'nikma va qadriyatlar tizimidir [3]. Shu bois, tadqiqot metodologiyasi sifatida



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

pedagogik kuzatuv, kontent-tahlil, talabalar bilan test-suhbatlar va so'rovnomalar asosida sifatli tadqiqotlar o'tkazildi.

Adabiyotlar sharhidan ko'rindiki, raqamli madaniyat darajasining pastligi talabalarni noto'g'ri axborot manbalariga nisbatan himoyasiz holatda qoldiradi [1]. G'arbiy Yevropa oliv o'quv yurtlarida esa media savodxonlik alohida fan yoki modul sifatida o'tiladi [2]. Innovatsion yondashuvlarda ko'proq faoliyatga yo'naltirilgan, interaktiv, virtual platformalarga asoslangan texnologiyalar qo'llaniladi. Tadqiqot davomida shuni kuzatdikki, bu kabi vositalar yordamida axborotni filtrlash, soxta manbalarni tanib olish va ijtimoiy tarmoqlardagi manipulyatsiyani anglash darajasi oshadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, media savodxonlikni oshirish bo'yicha interaktiv, loyiha asosidagi va raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanilgan guruhlarda talabalar axborotga tanqidiy yondashish, fakt va fikrni farqlash, havfsizlikni ta'minlash ko'nikmalarini tezroq egallagan. Aksincha, an'anaviy leksiya-uslub asosidagi guruhlarda natijalar sezilarli darajada past bo'lgan.

Ko'pchilik talabalar (83%) media axborotni tahlil qilishda avval raqamli vositalardan foydalanishni afzal ko'rishini bildirgan. 69% talabalar esa noto'g'ri axborotdan himoyalanish bo'yicha interaktiv topshiriqlarning amaliy foydali bo'lganini ta'kidlagan. Bundan kelib chiqadiki, media savodxonlikni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish talabaning faol ishtirokini oshiradi va natijadorlikni kafolatlaydi.

Media savodxonlikni oshirishda talabaga faqat nazariy bilim berish yetarli emas. Unga axborot bilan ishlashni o'rgatish – izlash, baholash, tanlash va undan xavfsiz foydalanishni amaliy mashg'ulotlar orqali shakllantirish muhim. Raqamli texnologiyalar – bu jarayonning eng muhim vositasi bo'lib, ayniqsa talabalar o'rtasida ommabop bo'lgan platformalar orqali bu ko'nikmalar samarali shakllanadi.

Shuningdek, media savodxonlik ijtimoiy mas'uliyat, axborot etikasiga rioya qilish, ma'lumotlar xavfsizligi kabi masalalarni ham o'z ichiga oladi. Shu bois, bu yo'nalishda faqat pedagog emas, balki psixolog, IT mutaxassisi, ijtimoiy muhit ham faol ishtirok etishi kerak. Tadqiqotda aniqlanishicha, talabalar faol ishtirok etganida media savodxonlik nafaqat o'quv ko'nikmasi, balki kundalik hayot uchun zaruriyatga aylanadi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Maqolada olib borilgan tahlillar va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, media savodxonlik – bu zamonaviy yoshlar uchun zaruriy raqamli kompetensiyadir. Uni shakllantirishda an'anaviy uslublar bilan cheklanmaslik, balki innovatsion yondashuvlardan faol foydalanish talab etiladi.

#### Tavsiyalar:

Oliy ta'limda media savodxonlik alohida modul sifatida kiritilishi maqsadga muvofiq.

Interaktiv platformalar, simulyatsion mashg'ulotlar, loyiha asosidagi topshiriqlarni qo'llash kerak.



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Talabalar uchun faktcheking, axborot xavfsizligi va algoritmik filtrlar haqida maxsus mashg'ulotlar tashkil etish zarur.

Pedagoglar uchun media pedagogikasi yo'nali shida malaka oshirish kurslari joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, talabalarning media savodxonligini oshirish orqali ularning tanqidiy fikrlash, axborotdan oqilona foydalanish va raqamli madaniyatini yuksaltirish imkoniyatlari kengayadi.

### ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Qodirova, D.A. Media savodxonlik va raqamli madaniyat: zamonaviy yondashuvlar. — Toshkent: Innovatsiya, 2020. — 144 b.
2. Potter, W.J. Media Literacy. — 9th ed. — Los Angeles: SAGE Publications, 2019. — 432 p.
3. Jaksılıkovna, J. A. (2022). TA'LIM JARAYONINI BULUTLI XISOBLASH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK OMILLARI. Gospodarka i Innowacje., 23, 77-82.
4. Jaksılıkovna, J. A. (2023). Solving Problems Using the Wolfram Alpha Program. European Scholar Journal, 4(2), 67-71.
5. ЮНЕСКО. Глобальная стратегия по медиаграмотности: Образование и доступ к информации в цифровую эпоху. — Париж: ЮНЕСКО, 2021. — 96 с.
6. Nurmatova, S.M. Oliy ta'linda media savodxonlikni shakllantirishning metodik asoslari // Pedagogik izlanishlar jurnali. — 2022. — №3. — B. 28–32.

